

SHARQ ALLOMALARINING YOSHLARNI IJOBIY FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KOMIL INSON QILIB TARBIYALASHDAGI AMALIY YONDASHUVLARI

Husaynov Muhammadho'ja Rahmonjonovich

NamDU katta o'qituvchisi

Surayyo Isroilovna Husaynova

NamDU stajor-o'qituvchisi

Annotatsiya: *Shaxs kamolotida ta'lim-tarbiya, xulq-atvor normalarini tarkib toptirish, shuningdek irodaviy sifatlar borasidagi fikrlar bilan birgalikda o'zini-o'zi nazorat qilish masalasi ham dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shu bois allomalarimiz tomonidan qoldirilgan ilmiy meroslar orqali shaxsni nafaqat aqlan, ahloqan, balki, irodasi kuchli, sabotli, har qanday vaziyatda o'zini-o'zi nazorat qila oladigan qilib tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz.*

Kalit so'zlar: *kamolot, xulq-atvor, ta'lim, mehnat, tarbiya, farzand, axloq.*

Аннотации: *Вопрос самоконтроля в сочетании с представлениями о воспитании, содержании норм поведения, а также волевых качествах в процессе созревания личности также является одной из актуальных проблем. Поэтому благодаря научному наследию, оставленному нашими учеными, мы сможем воспитать человека не только умственно, нравственно, но и волевым, стойким, способным к самоконтролю в любой ситуации.*

Ключевые слова: *зрелость, поведение, воспитание, труд, воспитание, ребенок, нравственность.*

Annotatsion: *The issue of self-control in combination with ideas about upbringing, the content of norms of behavior, as well as volitional qualities in the process of maturation of personality is also one of the urgent problems. Therefore, thanks to the scientific legacy left by our scientists, we will be able to educate a person not only mentally, morally, but also strong-willed, persistent, capable of self-control in any situation.*

Keywords: *maturity, Behavior, Education, Labor, upbringing, child, morality.*

Abdurahmon Jomiy ham o'z asarlarida tarbiyaning ahamiyatiga katta e'tibor beradi. Jomiy avvalo, tarbiya haqida fikr yuritar ekan, har bir narsani ham parvarish etsa, undan yaxshi natija chiqishini, insonni ham yaxshi tarbiya etsa, u barkamol bo'lishini alohida ta'kidlaydi. Shu bois yetuk insonga xos axloqiy xislatlar uning barcha asarlarida keng tarannum etiladi. Masalan, haqiqiy insonga xos bo'lgan ahloqiy xislatlardan yaxshilik, saxiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik, sabr-qanoat, do'stlik, rostg'oylik, mehnatsevarlik kabilarni tarbiyalashga alohida e'tibor bilan qaraydi. Jomiy bilim-hunarsiz kishini o'tindan bosgqaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o'xshatadi. U har bir yoshni ota obro'si, shon-shuxratdan mag'rurlanmay, o'z yo'lini tanlashga, ilmu

hunar o'rganishga undaydi. Shuningdek, hunar o'rganishi har bir kishi uchun, u yoshmi, keksami, shohmi, fuqaromi, barchaga barobar, deb ta'kidlaydi. Iskandar xiradnomasi dostonida yonon podshohi Faylaqusning o'z farzandi Isksndarni mashhur muallim Arastu oldiga olib kelib, unga ilm va hunar, davlatni boshqarishni o'rgatishni so'ragani hikoya qilingan. Zero Faylaqus o'z farzandining bilim va hunar, donolik sirlarini o'rganib olishi uning baxt-saodatga erishish yo'li ekanligini tushungani uchun ham o'z zamonasining nom chiqargandonishmadi oldiga olib keladi. O'z navbatida, Arastuga shogird tushgan Iskandar ham ilmu hunar egallashga zo'r ishtiyoq bilan kirishganligi va uni egallash sharafiga muyassar bo'lganligi bayon qilinadi.

Jomiy inson uchun ilmu hunarning qay darajada zarurligini to'g'ri talqin etgan. Alloma ilm va hunarni e'zozlagan rahbar ham o'z elining e'zozida bo'lishi, bunday o'lka gullab-yashnashi mumkinligini uqtiradi. Shuningdek Abdurahmon Jomiy mehnatkash insonni ulug'laydi, ayniqsa dehqonlar mehnati haqida fikr yuritar ekan, ular moddiy ne'matlar yaratish bilan jamiyatda hurmatga sazovor ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Jaloliddin Davoniy sharq olimi, faylasufidir. Yoshligidan ilm-fanga, xususan fiqhshunoslikka qiziqadi. Maktabni bitirgach, Sherozga kelib madrasada tahsil ko'radi. So'ng Sheroz shahri qozisi etib tayinlanadi. Qozilikdan iste'foga chiqqach, mudarrislik qiladi. Umrining oxirida o'z qishlog'iga qaytib, ilmiy faoliyat bilan band bo'ladi. U falsafa, axloqshunoslik, mantiq, fiqh, falakiyot, riyoziyot va handasa fanlari muammolarini tadqiq qilib asarlar yozdi. Davoniyning asosiy asarlari: "Axloqi Jaloliy", "Risolatul-xuruf" ("Harflar haqida risola"), "Risolayi isboti vojib" ("Zaruriyatning isboti haqida risola"), "Risola ul-mufradot" ("Moddalar haqida risola"), "Risolayi fi tavjix ultashbih" ("Majoz talqini xaqida risola"), "Risola dar elm un-nafs" ("Ruhshunoslik to'g'risida risola"), "Tariqati tarbiyat ul-avlod" ("Bolalarni tarbiyalash usuli") va boshqalar Davoniyning fors va arab tilida bitilgan qo'lyozma hamda toshbosmada bosilgan risolalari dunyoning ko'p kutubxonalarida, shu jumladan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Davoniyning axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan, pedagogika ilmi uchun ahamiyatli sanalgan "Axloqi Jaloliy" asari dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan. Asar uch qismdan iborat. Birinchi qism – axloq faniga, ikkinchi qism – "Odamning ichki holati" oilaviy hayotiga, uchinchi qism – "Shahar (davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati" deb nomlanib, unda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar ko'tariladi. Asardagi barcha fikrlar o'qishga, o'rganishga va tahlil qilishga arziydi.

Jaloliddin Davoniy shijoatkorlikni, mardlikni ham insonning ijobiy fazilatlaridan biri deb hisoblaydi. U yoshlarning bunday xislatni egallashi juda ham zarurligini tushunib yetadi. U shijoatni keng ma'noda ta'riflaydi. Shijoatga kamtarlik, yumshoq fe'llilik, chidamlilik va boshqa sifatlarni kiritadi. Davoniy shijoat kishining xatti-harakatini va boshqaalar bilan bo'lgan munosabatini baholaydigan bir tushuncha deb qaraydi. Davoniy bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish bilan kasb-hunar o'rgatish haqida ham qimmatli fikrlarni bildirgan. Davoniy muallimning bolalarni qaysi kasbga qiziqishi, qobiliyatini yaxshi bilishi zarurligi haqida gapirib, bola qiziqib biror hunar

yoki ilm bilan shug'ullansa, unga har qanday sharoitda ham imkoniyat yaratib berish kerak, deb uqtiradi. Albatta, hamma kasblarni egallab bo'lmaydi, ammo har biro damning biror kasbga qobiliyati bo'ladi, deydi olim. Biror kasbni egallab olishga intilgan kishi butun iste'dodini sarf etib, ana shu kasbni tezda o'rganib oladi. U agar inson biror xavf-xatarga duch kelsa, o'zini mahkam tutishi, esankirab qolmasligi, muvaffaqiyatsizliklardan zararlanmasligi, sabotli bo'lishi zarurligini aytadi va mana shunday harakatlarni shijoatkorlik deb ataydi.

Agar u yoki bu shaxsning muayn kasb-hunarga ishtiyoqi bo'lmasa, uni majbur qilish mumkin emas, aks holda u o'zini qiynaydi va bu kasb-hunar unga baxt-saodat keltirmaydi deydi. Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchga bo'ladi, buni kishilarning ruhiy quvvatiga bog'lab ko'rsatib, birinchisini inson aqliga tegishli, deb ko'rsatadi va bunga vazirlik kasbini kiritadi. Ikkinchisi ta'lim-tarbiya natijasida vujudga keladi, deb bunga aстранomiya, matematika, tib, geometriya fanlari bilan shug'ullanishni kiritadi. Uchunchisiga kishilarning shijoati, jasurligi bilan bog'liq kasblarni, yani dushmanga qarshi kurash chegarani qo'riqlash va boshqalarni kiritadi. Olim kasbi bo'lmagan, biror kasb bilan shug'ullanmaydigan kishilarni qattiq tanqid qiladi. Otasining mol-mulkiga ishonib kasb-hunar egallamaydigan yoshlarni qoralaydi. Mehnat qilish, hunar egallashni targ'ib qilar ekan, mehnat inson kamoloti va baxt-saodati manbai, deb hisoblaydi. Yoqorilardan ko'rinib turubdiki, Davoniy kasb-hunar egallash insoniy fazilatlarining eng muhimi, deb talqin etadi. U kasb-hunar egallarini quyidagi toifalarga bo'lib: chunonchi, birinchi toifaga qalam ahllari: olimlar, noiblar, munajjimlar, qozilar, muhandislar, musulmon qonunshunoslari va hokazo, to'rtinchi toifaga esa dehqonlar, qishloq xo'jaligi bilan shugullanuvchilarni kiritadi.

Davoniy ayniqsa, dehqonchilik kasbini ulug'laydi. Davoniy ham barcha mutafakkirlar kabi dehqonning medhnatiga yoqori baho beradi. Zero, dehqon odamlarni oziq-ovqat, moddiy boylik bilan ta'minlaydi. Olim agar dehqon bo'lmasa, inson zoti mayda sovdagarlardek yo'q bo'lib ketgan bo'lur edi, chunki boshqa toifadagi kishilar inson hayot kechirishi uchun ulardek ne'mat yarata olmaydilar, balki bunyod qilingan narsalarni boshqa kishilarga beradilar, joydan-joyga olib boradilar, shaklini o'zgartiradilar, deydi. Demak, Davoniy dehqon mehnatini boshqa kishilarning menatidan yoqori qo'yadi. Ko'rinib turubdiki, uning dehqon mehnati haqidagi fikrlari boshqa SHarq mutafakkirlarining fikri bilan hamohangdir. Masalan, Navoiy dehqon mehnatidan hatto qurt-qumursqalar, hasharotlar, hayvon va parrandalar ham bahramand bo'lishini o'z vaqtida haqqoniy baholagan.

Davoniyning kasb-hunar haqidagi qarashlari shu bilan ahamiyatliki, u oddiy xalq mehnatini, dehqon mehnatini ulug'laydi, insonning faqat mehnati tufayligina baxt-saodatga erishuvi mumkinligini, mehnat insonning shaxs sifatida kamol topishining bir mezoni ekanligini isbotlaydi.

Davoniy shijoatkorlikni inson aqliga bo'ysunishi lozim deb biladi: "Shijoatkorlik aqlning buyrug'i bilan sodir bo'ladi, uning maqsadi ijobiy fazilatlarini egallash

bo'lgandagina u haqiqiy bo'ladi", deydi. Demak, uningcha inson qachonki shijoatkorona xatti-harakat qilsa, u albatta aqlning buyrug'i va zaruratiga asoslanishi kerak.

Allomaning fikricha, ba'zi kishilar tashqi tarafdin shijoat va jasurlikka o'xshaydigan ishlarni bajaradilar. Ular bunday faoliyatni o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishish uchun, o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida ta'magirlik uchun qiladilar. Bunday yaramas qiliqlarni shijoatkorlikka kiritib bo'lmaydi.

Davoniy qanoat tushunchasini kishi ruhining yaxshi fazilati deb hisoblaydi, eng muhimi u qanoatni zaruriy hatti-harakatlar bilan bog'laydi. Kishi faqat zaruratga asoslanib ish tutishi lozim: dunyoda insonga eng zaruriy narsalar kerak xalos, boshqaalarga intilishning xojati yo'q, masalan yeyish-ichishda, hissiyotlarga berilishda va boshqa harakatlarda chegarani bilish, mo'tadillikka, normaga rioya qilish, ayniqsa, boylikka xirs qo'ymaslik qanoatni bildiradi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, shaxs kamolotida ta'lim-tarbiya, xulq-atvor normalarini tarkib toptirish, shuningdek irodaviy sifatlar borasidagi fikrlar bilan birgalikda o'zini-o'zi nazorat qilish masalasi ham dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shu bois allomalarimiz tomonidan qoldirilgan ilmiy meroslar orqali shaxsni nafaqat aqlan, ahloqan, balki, irodasi kuchli, sabotli, har qanday vaziyatda o'zini-o'zi nazorat qila oladigan qilib tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar – sog'lom avlodni tarbiyalash vositasi. T., "O'qituvchi" 1995 y.
2. Badritdinova, M., & Xusaynov, M. (2020). DESCRIPTION OF THE METHODS OF DIAGNOSING THE COGNITIVE STYLE OF 'U'ILS IN THE EDUCATIONAL 'ROCESS. Theoretical & A'lied Science, (2), 643-646.
3. Husaynov, M. J., & Abduga'orova, L. (2020). SIGNIFICANCE OF pedagog ICAL SUBJECT. TO 'ROTECT FROM IDEOLOGICAL
4. O'zbekiston mustaqil va taraqqiyot yo'lida "O'zbekiston" 1994 y.
5. Botirjon Maxammadjon o'g'li Y. . (2023). SHARQ UYG'ONISH (RENESSANS) DAVRI ADABIYOTI. Scientific Impulse, 1(5), 1891–1895. Retrieved from <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/3352>
6. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
7. M.Husaynov, & S. Husaynova. (2023). AJDODLARIMIZNING BOY MEROSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI, YOSH AVLODNI RUXIY VA MA'NAVIY TARBIYALASH KELAJAK POYDEVORI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 778–781. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/8757>

8. THE CONTRIBUTIONS OF OUR ANCESTORS TO THE RENAISSANCE THROUGH
A SENSE OF PATRIOTISM.MR Husaynov, N Sattibekmirzayeva - American Journal Of
Social Sciences And Humanity 2023/11/10 ..., 2023 24-28 b

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz